

2026
№ 1

ISSN 21816130



TAFAKKUR ZIYOSI

ILMIY-USLUBIY JURNAL

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasining filologiya, falsafa, tarix, va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan. Jurnalning indeks raqami: 3535



Suratda Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston
Milliy bog'i Toshkent shahri, O'zbekiston.

JDPU TAHRIRIY
NASHRIYOT
BO'LIMI



“Raqamli gumanitar fanlar: adabiyotda bilimni tahlil qilish, talqin etish va yaratishda hisoblash vositalaridan foydalanish”	223
Madina G‘ofurovna Urazaliyeva – f.f.b.f.d. (PhD), katta o‘qituvchi, O‘R QK “Tinchlik yo‘lida hamkorlik” Markazi	
“SiBol” gazeta korpusi asosida inglizcha qo‘shma so‘zlarni o‘zbek tiliga tarjima qilishning korpusga asoslangan tahlili	233
Orzubek Raxmanovich Anarbayev – katta o‘qituvchi, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti	

05. TABIIY VA ANIQ FANLAR

Taqqoslamalar va ularning tadbirlarini o‘rgatish jarayonida o‘quvchilarni kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish	241
Axmadjon Soleyevich Soleyev – professor, Samarqand davlat universiteti Qurbon Ostons – dotsent, Samarqand davlat universiteti Ma‘rufjon Sultonovich Jurakulov – ilmiy tadqiqotchi, Samarqand davlat universiteti	
Nofizik yo‘nalishdagi talabalarni kompetensiyaviy yondashuv asosida laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etish metodikasi	251
Odinaxon To‘lqinboevna Ismanova – p.f.d. (DSc), dotsent, Namangan davlat universiteti Moxidil Ravshanbek qizi Maxmudova – talaba, Namangan davlat chet tillari instituti	
Raqamli texnologiyalar vositasida yasashga doir masalalarni yechish	258
Abdivali Shamshiyev – dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti Zilola Ulug‘bek qizi Ergasheva – magistrant, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Общей физики в общеобразовательных учреждениях	262
Садулла Убайдуллаев – доцент, Джизакский государственный педагогический университет	
Uzluksiz (zanjirli) kasrlar yordamida sonni taqribiy hisoblash va uning amaliy ahamiyati	268
Abulqosim Abdurashidovich Parmanov – p.f.f.d., dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Sun‘iy intellekt vositalari yordamida ta‘lim jarayonini infografik vizualizatsiya qilish: imkoniyatlar va metodik yondashuvlar	272
Buvsara Abdumannonovna Djurayeva – p.f.f.d. (PhD), Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Oliy ta‘limda axborot bilan ishlash kompetentligining pedagogik-psixologik ahamiyati	276
Abror Amrullayevich Karshiyev – dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Eritmaning kolligativ xossalari o‘ld olimpiada masalalari va ularni yechish usullari	280
Kamila Xamidovna Rashidova – dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti Akmal Qudratovich Kenjayev – PhD, Jizzax davlat pedagogika universiteti Sevara Nuritdinovna Kenjayeva – o‘qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti akademik litseyi	
Geografiya ta‘limida interaktiv kartalarning o‘rni va ahamiyati	290
Ilxom Xatamovich Abdullayev – dotsent, O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti Orifjon Ungarovich Ergashev – katta o‘qituvchi, Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi	

"SIBOL" GAZETA KORPUSI ASOSIDA INGLIZCHA QO'SHMA SO'ZLARNI O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHNING KORPUSGA ASOSLANGAN TAHLILI

Orzubek Raxmanovich Anarbayev – katta o'qituvchi,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz tilidagi gazeta matnlariga xos bo'lgan qo'shma so'zlarning o'zbek tiliga tarjima qilinish jarayonida korpus lingvistikasi imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot materiali sifatida 1993–2021-yillar oralig'ida nashr etilgan ingliz sifatli gazetalarini qamrab olgan SiBol korpusi tanlandi. Maqolada inglizcha qo'shma so'zlarning struktur-semantik xususiyatlari, ularning gazeta diskursidagi funksional yuklamasi hamda o'zbek tiliga tarjima qilishda yuzaga keladigan muammolar korpusga asoslangan metodlar yordamida ochib beriladi. Tadqiqot natijalari inglizcha qo'shma so'zlarni adekvat tarjima qilishda kontekstga tayanuvchi, funksional ekvivalentlikka asoslangan yondashuv eng samarali ekanini ko'rsatadi.

Аннотация. В данной статье рассматривается применение методов корпусной лингвистики при переводе сложных слов с английского языка на узбекский на материале газетных текстов. В качестве источника исследования был использован корпус SiBol, включающий в себя британские широкоформатные газеты, опубликованные в период с 1993 по 2021 год. На основе корпусных методов в статье анализируются структурно-семантические особенности английских сложных слов, их функциональная нагрузка в газетном дискурсе, а также трудности, возникающие при их переводе на узбекский язык. Результаты исследования показывают, что наиболее эффективным методом для адекватного перевода английских сложных слов является контекстуальный подход, основанный на принципе функциональной эквивалентности.

Abstract. This article examines the application of corpus linguistics to the translation of compound words found in English newspaper texts into the Uzbek language. The SiBol corpus, which comprises English broadsheet newspapers published between 1993 and 2021, was selected as the research material. Using corpus-based methods, the article explores the structural-semantic features of English compound words, their functional load in newspaper discourse, and the challenges encountered when translating them into Uzbek. The research findings indicate that a context-driven approach based on functional equivalence is the most effective method for the adequate translation of English compound words.

Kalit so'zlar: korpus lingvistikasi, gazeta diskursi, qo'shma so'zlar, tarjima strategiyalari, SiBol korpusi.

Ключевые слова: корпусная лингвистика, газетный дискурс, сложные слова, стратегии перевода, корпус SiBol.

Keywords: corpus linguistics, newspaper discourse, compound words, translation strategies, SiBol corpus.

Zamonaviy tilshunoslikda tarjima jarayoni faqat leksik birliklarni bir tildan ikkinchi tilga ko'chirish bilangina cheklanmay, balki til, madaniyat va diskurslararo murakkab munosabatlarni qamrab oluvchi ko'p qatlamli jarayon sifatida talqin etiladi. Ayniqsa, ingliz tilidagi gazeta matnlarini o'zbek tiliga tarjima qilishda qo'shma so'zlar (compound words) alohida muammoli qatlamni tashkil etadi. Buning asosiy sababi shundaki, ingliz tilida qo'shma so'zlar yuksak darajada mahsuldor bo'lib, gazeta

diskursida axborotni ixcham, ta'sirchan va semantik jihatdan zich holda ifodalash vositasi sifatida faol ishlatiladi¹.

Gazeta matnlari ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarni tezkor yoritishi bilan ajralib turadi. Natijada yangi tushunchalar, hodisalar va jarayonlarni nomlash zarurati tug'iladi. Bu ehtiyoj ingliz tilida ko'pincha qo'shma so'zlar orqali qondiriladi². Masalan, policy-maker, power-sharing, cost-cutting, climate-driven kabi birliklar nafaqat leksik yangilik, balki

1 Rahmanovich, A.O. (2023). Methods and problems of translating english newspaper texts into uzbek Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities.

2 Raxmanovich, A.O. (2023). Translation methods of newspaper and journalistic texts, innovation in the modern education system.

muayyan ijtimoiy-ma'naviy mazmunni ham mujassamlashtiradi. Ushbu birliklarni o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida esa lakunarlik, semantik noaniqlik va uslubiy mos kelmaslik muammolari yuzaga chiqadi.

So'nggi yillarda tarjima tadqiqotlarida korpus lingvistikasi yondashuvining ahamiyati keskin oshdi. Korpuslar tarjimonga real nutq namunalarini, kontekstual qo'llanishlarni va til birliklarining funksional xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Ayniqsa, gazeta matnlariga ixtisoslashgan korpuslar inglizcha qo'shma so'zlarni tarjima qilishda ishonchli empirik asos bo'lib xizmat qiladi.

Korpus lingvistikasi til hodisalarini sun'iy yaratilgan misollar emas, balki tabiiy, autentik matnlar asosida o'rganishni nazarda tutadi. Bu yondashuv tarjimada, ayniqsa, ko'p ma'noli va kontekstga kuchli bog'liq birliklar, jumladan, qo'shma so'zlar bilan ishlashda muhim ahamiyat kasb etadi³. Chunki qo'shma so'zlarning ma'nosi ko'pincha ularning tarkibiy qismlaridan kelib chiqib emas, balki ularning qo'llanish konteksti orqali aniqlanadi.

Tarjima tadqiqotlarida korpuslar quyidagi vazifalarni bajaradi:

- til birliklarining real qo'llanish chastotasini aniqlash;
- semantik va pragmatik xususiyatlarini ochib berish;
- tarjima strategiyalarining samaradorligini baholash⁴.

Aynan shu jihatlar inglizcha qo'shma so'zlarni o'zbek tiliga tarjima qilishda korpus yondashuvining dolzarbligini belgilaydi.

Mazkur tadqiqotning empirik materiali sifatida SiBol: Corpus of English Broadsheet

Newspapers (1993–2021) tanlandi. Ushbu korpus ingliz broadsheet (sifatli gazeta) gazetalarida chop etilgan maqolalardan iborat bo'lib, tilning rasmiy-jurnalistik uslubini aks ettiradi. Broadsheet gazetalar tili sensatsion emasligi, mantiqiy izchilligi va nisbatan neytral uslubi bilan ajralib turadi. Shu sababli ular ilmiy va tarjimashunoslik tadqiqotlari uchun ishonchli manba hisoblanadi.

Korpusda siyosat, iqtisod, ekologiya, ijtimoiy masalalar va xalqaro munosabatlarga oid matnlar keng qamrab olingan. Aynan ushbu sohalarda qo'shma so'zlar yuqori chastotada qo'llanadi va semantik jihatdan muhim yuklama kasb etadi.

SiBol: Corpus of English Broadsheet Newspapers ingliz tili gazeta diskursini ilmiy-empirik asosda o'rganish uchun mo'ljallangan korpus bo'lib, u tilshunoslik, tarjima tadqiqotlari va korpus lingvistikasi sohalarida keng qo'llaniladi. SiBol korpusi 1993–2021-yillar oralig'ida chop etilgan ingliz tilidagi broadsheet gazetalaridan yig'ilgan maqolalar to'plamini o'z ichiga oladi; u taxminan 850 million so'zli matn va 2 milliondan ortiq maqolani qamrab oladi, bu esa uni ingliz gazeta nutqi tahlilida juda yirik empirik bazasi sifatida ajratib turadi.

SiBol korpusining strukturasida 18 ta turli gazetadan olingan materiallar mavjud bo'lib, ularning orasida klassik broadsheet nashrlari hamda xalqaro nashrlar ham uchraydi. Masalan, The Times, The Daily Telegraph, The Guardian, Times of India kabi obro'li gazetalar korpusdagi maqolalar sonining katta qismini tashkil qiladi – The Timesdan 447 524 ta, The Daily Telegraphdan 362 139 ta, The Guardian'dan 314 544 ta maqola mavjud. Boshqa nashrlar, masalan New York Times (94 000+ maqola), Daily Mirror va Daily Mail ham korpusda statistik jihatdan sezilarli ulushga ega.

3 Rakhmanovich, A.O. (2023). Special features of translating English newspaper texts. Imras, 6 (7), 220–226.

4 McEnery, Tony, Hardie, Andrew. Corpus Linguistics: Method, Theory and Practice. – Cambridge: Cambridge University Press, 2012. – 292 p.

SiBol korpusining ilmiy ahamiyati bir necha jihatlarida namoyon bo'ladi. Avvalo, korpus diaxronik tuzilishga ega bo'lib, 1993-yildan 2021-yilgacha bo'lgan vaqt oralig'ida gazeta tilining o'zgarishini kuzatish imkonini beradi. Bu esa leksik, sintaktik va semantik birliklarning vaqt o'tishi bilan qanday evolyutsiyaga uchraganini statistik asosda aniqlash imkonini beradi.

Ikkinchidan, korpus lingvistik vositalar bilan ishlashga mos tarzda tayyorlangan: matnlar TreeTagger yordamida Penn Treebank POS (parts-of-speech) teglari bilan belgilangan, bu esa so'z turkumlarini, kollokatsiyalarni, n-gramlar va boshqa lingvistik tuzilmalarni chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Bundan tashqari, SiBol korpusiga integratsiyalangan Sketch Engine kabi dasturiy vositalar orqali:

- konkordanslar kontekstlari,
- leksik chastota ro'yxatlari,
- kollokatsiyalar va sinonimlar tahlili,
- terminologik ekstraksiya kabi statistik-lingvistik funksiyalar bajarilishi mumkin.

SiBol korpusi nafaqat tilshunoslik, balki tarjima tadqiqotlarida ham katta resurs hisoblanadi. Masalan, Sehlenberger va boshqalar korpusdan gazeta diskursidagi frazalar va qo'shma so'zlar tahlil qilish uchun foydalangan, bu esa tarjima jarayonida kontekstual ma'noni aniqlash hamda ularning o'zbek tiliga tarjima strategiyalarini ishlab chiqishda muhim empirik sifatida xizmat qilgan.

SiBol korpusining tarjima tadqiqotlari uchun ahamiyati quyidagi jihatlarida namoyon bo'ladi:

SiBol korpusi ingliz gazeta diskursini tahlil qilish uchun nazariy va amaliy asos taqdim etadi. U 1993–2021-yillar oralig'ida chop etilgan broadsheet gazetalar maqolalarini o'z ichiga olgan yirik diaxronik korpus bo'lib, taxminan 850 million so'z va 2 milliondan ortiq maqolani

qamrab oladi – bu ko'lam korpus asosida olib boriladigan statistik tahlilni ilmiy jihatdan ishonchli qiladi. SiBolni annotatsiya qilish Penn Treebank POS teglari bilan amalga oshirilgan bo'lib, leksik birliklar, jumlar va fazalarning kontekst asosida chuqur o'rganilishini ta'minlaydi.

Qo'shma so'zlar ingliz gazeta tilida yuqori mahsuldor leksik birlik hisoblanadi, ular ko'pincha ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy jarayonlarni qisqa, ixcham tarzda ifodalash uchun ishlatiladi⁵. Bunday birliklar semantik jihatdan zich va ko'p komponentli bo'lgani sababli (masalan, policy maker, cost cutting kabi), tarjimada ularning to'g'ri kontekstual ma'nosini aniqlash korpus asosida amalga oshirilmasa, noto'g'ri yoki yarmida ma'noda tarjima qilish xavfi mavjud bo'ladi. SiBol korpusi yordamida gazeta kontekstida ushbu qo'shma birliklarning statistik qo'llanish chastotasi, kollokatsiya munosabatlari va semantik preferensiyalarini aniqlash mumkin va bu tarjima samaradorligini oshiradi va kontekstual asosda aniq tarjima variantlarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Korpus lingvistikasi yondashuvi tarjima jarayonida kontekstni statistik asosda ko'rib chiqish imkoniyatini beradi. Corpus Assisted Discourse Studies (CADS) uslubi SiBol kabi korpuslardan foydalanishga asoslanadi. Bbu yondashuv leksik birliklarning ko'p miqdorda nutq sharoitlarida qanday ishlatilishini aniqlaydi va tarjima qarorlarini shu statistik faktlar bilan mustahkamlaydi. Bu esa tarjimonning intuitiv tarjima strategiyasidan voz kechib, real nutq namunalariga asoslangan qaror qabul qilishini ta'minlaydi.

Qo'shma so'zlarning tarjimasidagi murakkabliklar SiBol korpusi yordami bilan aniq ko'rinadi. Gazeta diskursida bir nechta oddiy so'z birikmasidan tashkil topgan bitta qo'shma so'z bitta leksik birlik sifatida

5 Rakhmanovich, A.O. (2023). Special features of translating English newspaper texts. Imras, 6 (7), 220–226.

ishlatiladi va uning ma'nosi ko'pincha lug'atdagi individual elementlardan farq qiladi. Masalan, power sharing yoki long term commitment kabi birliklarni kontekstsiz tarjima qilish aniq konnotativ va diskursiv ma'nolarni yo'qotishga olib keladi. SiBol korpusi tarkibidagi konkordans qatorlari tarjimon uchun qo'shma so'zning turli kontekstdagi ishlanmasini ko'rsatadi va tarjimada mos strategiyani tanlashda yordam beradi – tavsifiy, struktur yoki funksional ekvivalentlikka asoslangan tarjima.

Empirik tahlil imkoniyatlari tarjima nazariyasini mustahkamlaydi va yangi strategiyalarni ishlab chiqishga xizmat qiladi. Masalan, korpusda tez tez uchraydigan qo'shma so'zlar bo'yicha chastota ro'yxatlarini, kollokatsiyalarni va semantik xaritalarni tuzish tarjimonlarga qo'shimcha ma'lumot beradi. Bu tahlillar tarjima jarayonida qat'iy statistik asosda yondashuvni qo'llashga imkon yaratadi, bu esa tarjima sifatini oshiradi va til o'rganish jarayonida qo'shma so'z tahlilini samarali qiladi⁶.

SiBol korpusining dolzarbligi bugungi kunda ham oshib bormoqda. Zo'ravonlik, ijtimoiy masalalar yoki global pandemiya kabi yangi diskurs mavzulari paydo bo'lgan sari qo'shma so'zlar soni ham ko'paymoqda; buni boshqa diaxron korpuslar misolida ko'rish mumkin, ammo SiBol kabi yirik gazetalar tili bazasi bunday trendlarni aniqlashda eng mos manba hisoblanadi. Shu sababli SiBol korpusi tarjima tadqiqotlarida nafaqat leksik birliklarni tarjima qilish uchun, balki zamonaviy ingliz tilining dinamik o'zgarishini kuzatish va tarjima strategiyalarini moslashtirishda ham ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Empirik tahlil shuni ko'rsatdiki, SiBol

korpusidagi gazeta matnlarida qo'shma so'zlar aniq struktur modellarga bo'ysunadi. Ularning eng mahsuldor turlari quyidagilardan iborat.

Ot+ot (N+N) modeli. Ot+ot modeli gazeta matnlarida eng mahsuldor hisoblanadi. Ushbu model gazeta diskursida konseptual nomlash vositasi sifatida faol ishlatiladi. Masalan: policy-maker, power-sharing, data-driven, decision-making⁷.

Korpus kontekstlari shuni ko'rsatadiki, N+N modeli orqali yaratilgan birliklar ko'pincha:

- muayyan ijtimoiy institutni;
- siyosiy rol yoki funksiyani;
- jarayon yoki strategiyani ifodalaydi⁸.

Mazkur birliklar yuqori semantik zichlikka ega bo'lib, bitta leksik birlik orqali murakkab tushunchani ifodalaydi. Bu esa tarjima jarayonida mazmuniy aniqlikni ta'minlash zaruratini yuzaga keltiradi.

Sifat+ot (Adj+N) modeli. Ikkinchi o'rinda chastota jihatidan Sifat+ot modelidagi qo'shma so'zlar gazeta diskursida baholovchi va tavsiflovchi vazifani bajaradi⁹. Masalan: high-risk, long-term, short-lived.

Empirik materiallar ushbu birliklarning strategik rejalashtirish, iqtisodiy tahlil va siyosiy baholash kontekstida faol qo'llanilishini ko'rsatadi.

Bu birliklarni tarjima qilishda o'zbek tilidagi sifatlash tizimi va so'z tartibi hisobga olinishi zarur.

Fe'l+ot (V+N) modeli. Fe'l+ot modeli orqali shakllangan qo'shma so'zlar asosan jarayon va faoliyatlarni nomlash uchun ishlatiladi. Ular

6 Biber, Douglas, Conrad, Susan, Reppen, Randi. *Corpus Linguistics: Investigating Language Structure and Use*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1998. – 300 p.

7 SiBol: *Corpus of English Broadsheet Newspapers (1993–2021)*. Ingliz tilidagi broadsheet gazetalar korpusi. – Elektron resurs. – Kirish manzili: <https://www.sketchengine.eu/sibol-corpus/> (murojaat sanasi: 15.02.2026).

8 O'sha manba.

9 O'sha manba.

iqtisodiy va boshqaruv diskursida yetakchi o'rin egallaydi.

Empirik tahlil shuni ko'rsatdiki, bunday birliklar tarjimada ko'pincha fe'llashgan yoki tavsifiy konstruktsiyalar orqali ifodalanadi.

Inglizcha qo'shma so'zlarning faqat struktur jihati emas, balki semantik yuklamasi ham chuqur o'rganildi. Natijada quyidagi asosiy semantik xususiyatlar aniqlanadi.

Semantik zichlik. Gazeta diskursida qo'shma so'zlar ko'pincha bir nechta semantik komponentni o'zida mujassamlashtiradi. Masalan, policy-maker bir vaqtning o'zida: shaxs, vakolat, siyosiy jarayon bilan bog'liqlik mazmunini ifodalaydi.

Tarjimada ushbu semantik komponentlarning barchasini saqlab qolish muhim ilmiy vazifa hisoblanadi.

Kontekstga bog'liqlik. Korpusdagi konkordans

qatorlari shuni ko'rsatadiki, qo'shma so'zlarning aniq ma'nosi ko'pincha faqat keng kontekstda ochiladi. Masalan, power-sharing atamasi siyosiy kelishuv, konstitutsiyaviy islohot yoki mintaqaviy boshqaruv kontekstida turlicha talqin qilinadi.

Bu holat tarjimada lug'aviy emas, balki diskursiv yondashuv zarurligini ko'rsatadi.

Metaforik va konnotativ qatlam. Ayrim qo'shma so'zlar metaforik ma'noga ega bo'lib, gazeta matnlarida baholovchi vazifa bajaradi. Masalan, hard-line policy yoki soft-power strategy kabi birliklar konnotativ ma'no yuklaydi.

Empirik tahlil shuni ko'rsatadiki, bunday birliklarni tarjima qilishda to'g'ridan-to'g'ri kalka ko'pincha stilistik mos kelmaslikka olib keladi.

SiBol korpusi materiallari asosida inglizcha qo'shma so'zlarni o'zbek tiliga tarjima qilishda quyidagi muammolar aniqlandi:

Inglizcha birlik	Tavsifiy tarjima
policy-maker	siyosatni ishlab chiquvchi shaxs
power-sharing	hokimiyatni bo'lishishga asoslangan tizim
cost-cutting	xarajatlarni qisqartirishga qaratilgan jarayon

1. Lakunarlik – tayyor ekvivalentning mavjud emasligi;

2. Struktur mos kelmaslik – inglizcha ixchamlik va o'zbekcha tavsifiylik o'rtasidagi farq;

3. Uslubiy nomuvofiqlik – gazeta uslubining o'zbek tilida yetarli darajada saqlanmasligi.

Empirik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, ushbu muammolar ayniqsa siyosiy va iqtisodiy terminologiyaga oid qo'shma so'zlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan, policy-maker so'zini oddiy "siyosatchi" deb tarjima qilish semantik

jihatdan yetarli emas. Korpus kontekstlari asosida bu birlik "siyosatni ishlab chiquvchi shaxs" tarzida tavsifiy tarjimani talab qiladi.

Inglizcha qo'shma so'zlarni o'zbek tiliga tarjima qilishda yagona universal model mavjud emas. Tarjima usulini tanlash qo'shma so'zning struktur turi, semantik zichligi va diskursiv vazifasiga bog'liq holda amalga oshiriladi.

Tavsifiy tarjima modeli. Tavsifiy tarjima modeli inglizcha qo'shma so'z o'zbek tilida tayyor ekvivalentga ega bo'lmagan hollarda qo'llaniladi. Ushbu model mazmunni to'liq ochib berishga xizmat qiladi, biroq matn hajmini kengaytiradi:

Inglizcha birlik	Funksional tarjima
decision-making	qaror qabul qilish jarayoni
long-term strategy	uzoq muddatli strategiya
high-risk investment	yuqori xavfli investitsiya

Funksional ekvivalentlik modeli. Mazkur model qo'shma so'zning formal tuzilishini emas, balki uning kommunikativ vazifasini saqlashga qaratiladi. Gazeta diskursi uchun ushbu yondashuv ayniqsa samarali hisoblanadi:

Struktur-transformatsion model. Ushbu model ingliz tilidagi ixcham qo'shma so'zlarni o'zbek tilining grammatik va uslubiy imkoniyatlariga moslashtirishni nazarda tutadi:

Inglizcha model	Tarjima
problem-solving	muammoni hal etish
data-driven	ma'lumotlarga asoslangan
short-term gain	qisqa muddatli foyda

Kalka modelining cheklangan qo'llanishi. Kalka modeli faqat o'zbek tilida ham shunga yaqin struktur mavjud bo'lgan hollarda qo'llanilishi mumkin. Murakkab ijtimoiy-siyosiy qo'shma so'zlarda ushbu model semantik nomuvofiqlikka olib kelishi mumkin.

Tadqiqot natijalari tavsifiy, funksional va struktur-transformatsion modellar gazeta diskursiga xos qo'shma so'zlarni tarjima qilishda eng samarali ekanini ko'rsatdi. Shuningdek, natijalar ingliz gazeta diskursida qo'shma so'zlar axborotni ixcham va samarali ifodalashning muhim vositasi ekanini ko'rsatdi hamda ularni tarjima qilishda kontekst va funksional yondashuv zarurligini ilmiy jihatdan asoslab berdi.

Xulosa qilib aytganda, SiBol korpusi – ingliz broadsheet gazetalaridan tuzilgan, diaxronik va statistika asosida boy empirik ma'lumotlar to'plamidir. U nafaqat ingliz tilining hozirgi jurnalistik uslubini o'rganishga, balki lingvistik nazariya va tarjima metodologiyasini rivojlantirishga ham xizmat qiladigan ilmiy resurs bo'lib xizmat qiladi.